

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI



60320100 – Jurnalistika: xalqaro jurnalistika (*Sharq tillari bilan*) ta'lim yo'nalishi, kunduzgi ta'lim shakli bitiruvchilari uchun mutaxassislik fanlaridan

YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYASI
DASTURI

Toshkent – 2024

Ushbu dastur O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 13 dekabrda "Oliy va kasbiy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 836-son qarori I-ilovasi bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasini o'tkazish tartibi to'g'risida"gi NIZOMga asosan ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar:

D.Ro'ziqulov – Tarjimashunoslik, tilshunoslik va xalqaro jumalistika oliy maktabi dotsenti v.b., PhD.
U.Mavlyanova – Xitoyshunoslik oliy maktabi dotsenti, PhD.

Taqrizchilar:

X.X.Hamidov – TDSHU, Tarjimashunoslik, tilshunoslik va xalqaro jumalistika oliy maktabi professori, DSc.
E.Z.Ochilov – O'ZRFA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti katta ilmiy xodimi, f.f.n., dotsent.

Dastur Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2024-yil 26-dekabrda 5-sonli majlisida muhokama qilingan va tasdiqlangan.

KIRISH

Mazkur dastur 5220100 – Jurnalistika: xalqaro jurnalistika (*Sharq tillari bilan*) ta'lim yo'nalishi bitiruvchilarining to'rt yil mobaynida ixtisoslik fanlarini o'qib o'zlashtirganlik darajasini aniqlash uchun o'tkaziladigan Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari bo'yicha ishlab chiqilgan.

2024/2025-o'quv yilida bitiruvchilarda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018-yil 25-avgustda 744-son bilan tasdiqlangan o'quv rejasidagi umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan o'tkaziladi.

Umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan Yakuniy davlat attestatsiyasi quyidagi tur topshiriqlarni o'z ichiga oladi:

I. Mutaxassislik fanlaridan sinov – 25 ball;

II. Mutaxassislik fanlaridan ijodiy yozma ish – 25 ball;

III. Sharq tilidan ona tiliga tarjima – 25 ball;

III. Ona tilidan sharq tiliga tarjima – 25 ball.

100 ballik baholash mezonlari dastur nihoyasida keltiriladi.

I. MUTAXASSISLIK FANLARI

Mutaxassislik fanlaridan attestatsiya yozma sinovlari "Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiya asoslari", "Bosma OAVda janrlar va mahorat masalalari", "Audiovizual jurnalistika", "G'arb va Sharq jurnalistikasining rivojlanish tendensiyalari", "Jurnalistika psixologiyasi va sotsiologiyasi", "Onlayn jurnalistika va mediada yangi trendlar", "Mediamarketing va menegment" kabi o'quv fanlaridan savollarni qamrab olgan. Ushbu qism bo'yicha quyidagi savollar tavsifiya qilinadi:

1. Jurnalistikaning ilk ko'rinishlari.
2. Ommaviy kommunikatsiya turlari va shakllari.
3. Favqulodda vaziyatlarda jurnalist psixologiyasi.
4. G.Maklyuen va K.Shennonning ommaviy kommunikatsiya modellari.
5. Jurnalistika ijtimoiy institut sifatida.
6. Ilk bor gazetaning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan omillar.
7. Jurnalistik axborot nima? U qanday qilib tovarga aylanadi va qanday ko'rinishda bozorga chiqadi?
8. Jurnalistikada janrlar va mahorat omillari.
9. Media huquqi va etikasiga doir qonunchilik hujjatlari mohiyati.
10. Axborot bozori nima va u qachon yuzaga keladi?
11. Ommaviy axborot vositasini ta'sis etish tartib-qoidalar.
12. Jurnalistikada ixtisoslashuv turlari va universallashtiruv tamoyillari.
13. Jurnalistikadagi ijodiy jarayonning psixologik xususiyatlari.
14. Raqamli jurnalistikaning asosiy xususiyatlari va turlari.
15. Jurnalistik matnning vazifalari.
16. Jurnalistikada yangi (qorishuv) janrlar va formatlar.

17. Radio maniga qo'yiladigan talablar.
18. Internet matni ta'sirining o'ziga xos xususiyatlari.
19. Mediamakonda jurnalistning tahrir mahorati prinsiplari.
20. PR tarixi, tasnifi, maqsadi, vazifa va tamoyillari.
21. PR texnologiyalari va reklamaniq farqi.
22. Inqirozli vaziyatlarda PR.
23. PRning axloqiy me'yorlari.
24. Elektron media tilining lingvistik xususiyatlari.
25. Xalqaro jurnalistikaning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan omillar.
26. Xorijdagi yirik OAV monopoliyalari.
27. G'arb va Sharq jurnalistikasining rivojlanish tendensiyalarini izohlang.
28. Xorijiy jurnalistikada OAV monopollashuvi va markazlashuvi tamoyili.
29. OAVning tijoriylashuvi tamoyili va daromad manbalarini topish usullari.
30. Intervyu olish va axborot yig'ishning qanday psixologik va sotsiologik usullarini bilasiz?
31. Tahririyatning PR va o'zini o'zi reklama qilish usullari.
32. Fuqarolik jurnalistikasining xususiyatlari. Blog tushunchasi va bloggerlik faoliyati.
33. OAV monopollashuvi va markazlashuvining ijobiy va salbiy jihatlari.
34. Sarioq matbuotning paydo bo'lishi tarixi.
35. Turkistonda o'zbek tilida chiqqan dastlabki davriy bosma nashr.
36. Xususiy gazeta va jumallarning asosiy xususiyatlari, mavzu yo'nalishlari.
37. Fotografiyaning jurnalistika taraqqiyotida tutgan o'rni.
38. OAV brendining shakllanish xususiyatlari.
39. Rasmiy web-saytga jurnalistik material tayyorlash qoidallari.
40. PRning fan sifatida vujudga kelishiga sabab bo'lgan omillar.
41. Jurnalistik ijodda temperamentlarning o'rni va ahamiyati.
42. Jurnalist mahoratida intuitsiya, idrokning roli.
43. Madaniyatlararo muloqotning asosiy tushunchalari va tarjima masalalari.
44. Xalqaro jurnalistik faoliyatga doir milliy va xorijiy hujjatlar. Akreditatsiya.
45. Kommunikatsiya turlari, tasnifi va zamonaviy vositalari.
46. Xorijdagi yirik axborot agentliklarining kelib chiqishi va bugungi faoliyati.
47. Onlayn jurnalistikada axborot xavfsizligi muammolari.
48. Jurnalistik faoliyatda qanday taqiqlangan normalarni bilasiz? Nega ularni qo'llab bo'lmaydi?
49. Tarmoq nashri uchun jurnalistik material tayyorlashning o'ziga xosliklari.
50. Omma oldida nutq so'zlashning etik aspekti. Ijtimoiy tarmoqlar tilining zamonaviy tendensiyalari.

II. MUTAXASSISLIK FANLARIDAN IJODIY YOZMA ISH

Mutaxassislik fanlaridan attestatsiya yozma sinovlari "Bosma ommaviy axborot vositalarida janrlar va mahorat masalalari", "Jurnalistik faoliyatni tashkil etish", "Audiovizual jurnalistika", "G'arb va Sharq jurnalistikasining rivojlanish

6. Muratova N. va boshq. Onlayn jurnalistika va mediada yangi trendlar. 7-jild. – T.: "O'zbekiston" NMU, 2019.
7. Nishonova G. va boshq. Zamonaviy media muhitida PR-xizmalar. 8-jild. – T.: "O'zbekiston" NMU, 2019.
8. Toshpo'latova N. Mo'minov F. Jurnalistika sotsiologiyasi va psixologiyasi. 10-jild. – T.: "O'zbekiston" NMU, 2019.

2. Qo'shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. – Toshkent: O'zbekiston, 2024.
2. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik. 5-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.
3. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekistonda taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz. 6-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.
4. Прохоров Е.П. Введение в теорию журналистики. Учебник МГУ. Икар. 2000.
5. Социология журналистики: учеб. пособие (под ред. С.Г. Корконосенко. – М., 2004.
6. Кузин В. Психологическая культура журналиста. Уч. пособие. СПб., 2001.

3. Axborot manbalari

1. www.ziyounet.uz
2. www.geocities.co.jp
3. www.dic.academic.ru/dic.nsf/rwukii
4. www.orient.pu.ru
5. www.narutoclan.ru
6. www.rusarticles.com

shkala	shkala	shkala	shkala	shkala	
5,00 — 4,96	100	4,30 — 4,26	86	3,60 — 3,56	72
4,95 — 4,91	99	4,25 — 4,21	85	3,55 — 3,51	71
4,90 — 4,86	98	4,20 — 4,16	84	3,50 — 3,46	70
4,85 — 4,81	97	4,15 — 4,11	83	3,45 — 3,41	69
4,80 — 4,76	96	4,10 — 4,06	82	3,40 — 3,36	68
4,75 — 4,71	95	4,05 — 4,01	81	3,35 — 3,31	67
4,70 — 4,66	94	4,00 — 3,96	80	3,30 — 3,26	66
4,65 — 4,61	93	3,95 — 3,91	79	3,25 — 3,21	65
4,60 — 4,56	92	3,90 — 3,86	78	3,20 — 3,16	64
4,55 — 4,51	91	3,85 — 3,81	77	3,15 — 3,11	63
4,50 — 4,46	90	3,80 — 3,76	76	3,10 — 3,06	62
4,45 — 4,41	89	3,75 — 3,71	75	3,05 — 3,01	61
4,40 — 4,36	88	3,70 — 3,66	74	3,00	60
4,35 — 4,31	87	3,65 — 3,61	73	3,0 dan kam	60 dan kam

ESLATMA: Yakuniy davlat attestatsiyasi jarayonida qo'yilgan bahodan norozi bo'lgan bitiruvchilar yakuniy davlat attestatsiyasi baholari e'lon qilingan kundan e'tiboran uch kun muddat ichida apellyatsiya komissiyasiga murojaat qilish huquqiga egadirlar. Talaba tomonidan berilgan apellyatsiya Appelyatsiya komissiyasi tomonidan 1 kun ichida ko'rib chiqiladi hamda DAK raisi bilan kelishilgan holda xulosa qilinadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Asosiy adabiyotlar

1. Nurmatov A. va boshq. Jurnalistika nazariyasi, tarixi va taraqqiyoti. 1-jild. — T.: "O'zbekiston" NMIU, 2019.
2. Xudoyqulov M. Jurnalistika va publitsistika (o'quv qo'llanma). — T.: Tafakkur, 2011.
3. Saidov H. va boshq. Bosma OAVda janrlar va mahorat masalalari. 5-jild. — T.: "O'zbekiston" NMIU, 2019.
4. Karimov A. va boshq. Audiovizual jurnalistika. 6-jild. — T.: "O'zbekiston" NMIU, 2019.
5. Saliyeva M.K. Zamonaviy Osiyo mamlakatlari jurnalistikasi. — T.: Navro'z, 2016.

tendensiyalari", "Onlayn jurnalistika va mediada yangi trendlar" fanlaridan savollarni qamrab olgan. Ushbu qism bo'yicha quyidagi savollar tavsiya qilinadi:

1. Matbuot anjumani uchun press-reviz yozing.
2. Ixtiyoriy axborot agentligi uchun mavzu tanlab, ixtisoslashgan axborotiy matn yozing.
3. Internet saytiga mo'ljallangan reklama matnini yozing.
4. Radio uchun yangilik matnini yozing.
5. Ixtiyoriy ixtisoslashgan teleko'rsatuv uchun mavzu tanlab, matn yozing.
6. Matbuot uchun portret ocherk matnini yozing.
7. "Xotiranga muhrlangan sayohat" mavzusida yo'l ocherkni yozing.
8. Ixtisoslashgan saytiga mo'ljallangan ixtiyoriy yangilik matnini yozing.
9. Xorijiy axborot agentligi uchun xalqaro mavzuda axborot matnini yozing.
10. "Universitetda o'tgan oltin yillarim" mavzusida esse yozing.
11. Universitetga ilk marta kelib, o'qib, bu yerda o'zingiz uchun kashf etgan uchta asosiy yangilikni yozing.
12. Qarindoshingizdan Sizga Telegram messengeri orqali "Qonunchilikka kiritilgan o'zgarish ekan", degan mazmunda "yangilik" uzatildi. Siz uning feyk ekanini bilasiz. Mazkur vaziyatda Sizning harakatingiz? Qanday yo'l tutasiz?

III. ASOSIY SHARQ TILIDAN ONA TILIGA TARJIMA (800-1000 b.)

gauli y되면 한국의 산은 온통 울긋불긋하게 단풍으로 물든다. 등산을 좋아하는 나는 주말을 맞아 친구와 함께 단풍으로 유명한 설악산에 가 보기로 했다. 한국에서 처음 떠나는 여행이라 설레어서 잠을 설치지만 다행히 늦지 않게 터미널에 도착할 수 있었다. 오랜만에 만난 친구와 한두 시간쯤 이야기를 나누다 보니 버스는 강원도 아양버스타미널에 도착했다. 우리는 거기에서 오색리행 버스로 갈아탔다. 본격적으로 단풍이 드는 10월, 버스 안은 단풍을 즐기려는 사람들로 북적였다. 우리는 들뜬 기분으로 창밖에 펼쳐지는 가을 경관을 보면서 단풍이 가득한 설악산을 상상해 보았다.

설악산에 올라가는 길은 여러 길이 있었지만 우리는 그중에서도 가파르지 않고 여유 있게 단풍을 구경할 수 있는 웅소폭포로 가는 길을 택했다. 이 등산 코스는 끝까지 가는 데에 한 시간 정도 걸려서 산행을 많이 해 보지 못한 나와 친구에게도 적당한 것 같았다. 우리는 건강에 좋은 물이 나온다는 오색약수터에서 산행을 시작했다. 맑은 공기와 함께 시원한 물을 마시니 몸과 마음이 건강해지는 기분이 들었다.

IV. ONA TILIDAN SHARQ TILIGA TARJIMA (800-1000 b.)

Qizim bilan ancha vaqtan beri birinchi bor bozorga yo'l oldik. Havo sovuqligi va kech tushganiga qaramasdan, bozor qilgani chiqqan uy bekalar ko'p edi. Bir erkak 2 oyog'iga mashina shinalari o'ralgan holda, turli ro'zg'or buyumlari ortilgan aravani tortib, ichidagilarni sotar edi. Tor bozor yo'liga tushib olgan aravani hamma chetlab o'tardi.

Men qizim bilan bir oz yurib, orqaga o'girilganda u erkakning qo'llari bilan zax yerni ushlab bazo'r harakatlanayotganiga ko'zim tushdi. Bu holatdan butun tanam titrab ketdi. Bir necha do'konni aylanib, rangi to'qroq bir qo'lqopni sotib oldim. Haligi erkakni qidira ketdim. Uni topib, qo'lqoplarni berdim. Shu payt shundoqina o'zimizga qo'shni joyda yashaydigan nogiron kishi esimga tushdi. Va o'z-o'zimdand uyalib ketdim. Shuncha yillardan beri bir bora ham unga e'tibor bermasdan yashaganligim uchun o'zimni koyidim.

Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlarining mutaxassislik fanlaridan yozma ishlar topshiriqlari bo'yicha talabalar bilimni baholash mezonlari

Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlarini baholash uchun maksimal baho - 100 ball etib belgilanadi.

Mutaxassislik fanlari bo'yicha yakuniy davlat attestatsiyasi sinovi biletlarining har birida 4 tadan savol bo'lib, ular quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

1. Birinchi va ikkinchi savollar mutaxassislik fanlariga tegishli bo'ladi. Ularning har biriga yozilgan javoblarni baholash 25 ball doirasida amalga oshiriladi.

Savol bo'yicha javoblarni baholash quyidagi jihatlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi:

- nazariy va amaliy bog'liqlikda yoritilgan;
- mazmunni yoritishda mustaqil ilmiy mushohada yuritish iqtidori mavjudligi;
- nom va ilmiy atamalarini bilish darajasi;
- keltirilgan faktlarning hozirgi davrdagi jarayonlar, o'zgarishlar bilan o'zaro aloqadorlikda ochib berilganligi, chuqur ilmiy tahlil etilgan hamda xronologik jihatdan to'g'ri yoritilganligi;
- muammoni tizimli mustaqil tahlil qilganligi, o'z fikrini erkin va mustaqil ifoda eta olganligi.

BAHOLASH SHKALASI:

1. Fikr aniq va izchil ifodalangan, barcha savollar mutlaqo to'liq yoritilgan va bunda tegishli ilmiy adabiyotlarga tayanilgan va har tomonlama chuqur asoslangan javoblarga 22.5-25 ballgacha - *a'lo* baho qo'yiladi.

2. Savolga nisbatan to'liq javob berilgan, fikr izchil ifodalangan, lekin bunda tegishli ilmiy va uslubiy adabiyotlarga kamroq e'tibor berilgan bo'lsa, 17.5-22.4

ballgacha - *yaxshi* baho qo'yiladi.

3. Savolga qisman javob bera olgan va ma'lum darajada ilmiy, o'quv-uslubiy adabiyotlardan foydalangan bo'lsa, 15-17.4 ballgacha - *qoniqarli* baho qo'yiladi.

4. Fikr aniq ifoda etilmagan, savolga qisman bo'lsada to'g'ri javob berilmagan, tegishli ilmiy, o'quv-uslubiy adabiyotlardan mutlaqo foydalanilmagan javoblar uchun 0-14.9 ballgacha - *qoniqarsiz* baho qo'yiladi.

2. Uchinchi savol bo'yicha mutaxassislikka oid (ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy, badiiy) mavzulardagi va 800-1000 belgi atrofidagi hajmga ega sharh tildagi matnini ona tiliga tarjima qilinadi.

3. To'rtinchi savol bo'yicha mutaxassislikka oid (ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy, badiiy) mavzulardagi va 800-1000 belgi atrofidagi hajmga ega ona tildagi matnini sharh tiliga tarjima qilinadi.

Yozma tarjimani baholashda 25 balllik mezon qo'llanadi. Matn tarjimasi quyidagi mezon asosida baholanadi:

BAHOLASH SHKALASI:

a) matnini to'liq 100 % tarjima qilsa	25 ball
b) 90 % tarjima qilsa	22.5 ball
d) 80 % tarjima qilsa	20 ball
e) 70 % tarjima qilsa	17.5 ball
f) 60 % tarjima qilsa	15 ball
g) 50 % tarjima qilsa	12.5 ball
h) 50 % dan kam tarjima qilsa	0 ball

Tarjima hajmidan kelib chiqib, baholashda oraliq ballar ko'rsatkichlari ham qo'llanishi mumkin.

Yozma ish natijalari bo'yicha sinov yakunida yig'ilgan ballar jamlanadi va quyidagicha baholanadi:

1. 90 - 100 ballgacha - *"a'lo"*;
2. 70 - 89 ballgacha - *"yaxshi"*;
3. 60 - 69 ballgacha - *"qoniqarli"*;
4. 0 - 59 ballgacha - *"qoniqarsiz"*

100 ballik va 5 balllik baholash tizimlarining o'zaro mosligi jadvali

5 baholik	100 ballik	5 baholik	100 ballik	5 baholik shkala	100 ballik